



UDK 656.073 (5-191.2)

Hazrat AZIMOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi
E-mail: h.azimov@gmail.com

Siyosiy fanlar doktori O. Musayev taqrizi asosida

TRANSPORT KORIDORLARI RIVOJLANISHINING JAHONDAGI TENDENSIYALARI VA ULARNING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI

Аннотация

Maqolada transport koridorlari rivojlanishining jahon miqyosidagi zamonaviy tendensiyalari va ularning Markaziy Osiyo mamlakatlariga ta'siri tahlil etilgan. Asosiy e'tibor global savdo oqimlarining qayta taqsimlanishi, tranzit tizimining diversifikatsiyasi va yangi logistika yo'laklarining shakllanishiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Transport koridori, logistika, tranzit, Markaziy Osiyo, geosiyosat.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ В МИРЕ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЦЕНТРАЛЬНУЮ АЗИЮ

Аннотация

В статье рассматриваются современные тенденции развития транспортных коридоров и их влияние на Центральную Азию. Особое внимание уделено глобальным торговым потокам, диверсификации маршрутов и стратегическим проектам региона.

Ключевые слова: Транспортный коридор, логистика, транзит, Центральная Азия, геополитика.

GLOBAL TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF TRANSPORT CORRIDORS AND THEIR IMPACT ON CENTRAL ASIA

Annotation

The article discusses the modern trends in the development of transport corridors and their impact on Central Asia. Particular attention is paid to the redistribution of global trade flows, diversification of logistics routes, and strategic projects in the region.

Key words: Transport corridor, logistics, transit, Central Asia, geopolitics.

Kirish. Uzoq muddatli istiqbolda global savdo oqimlarini qayta taqsimlash va Yevroosiyo yo'llarining rolini kuchaytirish jahon iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Agar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqaro logistika tizimiga samarali qo'shila olsa, bu ularning iqtisodiy barqarorligini oshiradi, yangi investitsiyalarni jalb qiladi hamda Sharq va G'arb o'rtasidagi tranzit markazi sifatidagi mavqegini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, asosiy global o'yinchilar – Xitoy, AQSH, Yevropa Ittifoqi va yaqin Sharq mamlakatlari o'rtasidagi manfaatlarni muvozanatlash masalasi muhim bo'lib qolmoqda, bu yangi koridorlarni barqaror rivojlantirish istiqbollarini belgilab beradi.

Logistika yo'nalishlarini global qayta taqsimlash sharoitida Markaziy Osiyo Sharq va G'arbn bog'laydigan yangi tranzit tizimini shakllantirish markazida nomoyon bo'lmoqda. Geosiyosat nuqtai nazaridan xalqaro transport koridorlarini rivojlantirishda global kuchlar muvozanatining o'zgarishi va davlat-larning strategik ustuvorliklarini aks ettiruvchi bir qancha asosiy tendensiyalar mavjudligi kuzatilmoqda. Eng avvalo, transport koridorlari nafaqat iqtisodiy qon tomirlarga

(arteriyalarga), balki davlatlar o'z manfaat-larini ilgari suradigan, ittifoq tuzadigan va an'anaviy yo'nalishlarga qaramlikni kamaytiradigan geoiqtisodiy ta'sirning muhim vositalariga aylanmoqda.

Asosiy tendensiyalardan biri – dunyo yetakchi davlatlarining strategik manfaatlariga asoslangan raqobatbardosh logistika bloklarini shakllantirishdir. Yana bir tendensiya – bu asosiy transport punktlariga bog'liqlikni kamaytirish uchun logistika oqimlarini diversifikatsiya qilishdir. Uchinchi tendensiya – transport koridorlarining harbiylashuvi va xavfsizligi masalasidir. O'sib borayotgan mintaqaviy mojarolar va dengiz navigatsiyasiga tahdidlar sharoitida strategik yo'nalishlarni himoya qilish davlatlar uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Markaziy Osiyoda xalqaro transport koridorlarini rivojlantirishdagi taraqqiyotni transport siyosatini muvofiqlashtirish, meyoriy-huquqiy bazani uyg'unlashtirish va mintaq davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan integratsiya jarayonlarini faollashtirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro bog'liqligi va tashqi iqtisodiy aloqalarining kengayishi sharoitida

transport integratsiyasi barqaror rivojlanish va mintaqaviy barqarorlikni mustahkam-lashning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Ushbu jarayonning eng muhim jihatlaridan biri – mintaqamamlakatlari o'rtasida transport siyosatini muvofiqlash-tirishdir. Xalqaro transport koridorlarining samarali tizimini yaratish infratuzilmani rivojlantirish, moddiy-texnik to'siqlarni olib tashlash va Markaziy Osiyo yo'nalishlarining jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan strategik qarorlarni talab qiladi. Markaziy Osiyo, Kavkaz, yaqin Sharq va Janubiy Osiyoni bog'laydigan transport yo'nalishlarini rivojlantirish istiqbollari ko'p jihatdan Lazurit koridori va Mozori-Sharif – Kobul-Peshovar temir yo'li kabi muhim infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga bog'liq.

Ushbu tashabbuslar mintaqaning tranzit rolini kuchaytirish, logistika yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga yo'naltirilgan.

Pokistonning Karachi, Qosim va Gvadar portlariga kirishni ta'minlaydigan Mozori Sharif – Kobul-Peshovar temir yo'li loyihasi qo'shimcha strategik yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yo'nalish Janubiy Osiyo temir yo'li tizimini Markaziy Osiyo va Yevroosiyo temir yo'li tarmoqlari bilan bog'laydi, bu esa Pokiston orqali tovarlar savdosi va tranziti uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu temir yo'li koridorining xalqaro transport sxemalariga kiritilishi Markaziy Osiyoning global logistika sohasidagi rolini kuchaytirishga yordam beradi. Termiz-Mozori-Sharif–Kobul-Peshovar temir yo'li loyihasi Markaziy va Janubiy Osiyo transport tarmoqlarini birlashtirish, shuningdek, xalqaro yuk tashishning muqobil yo'nalishlarini yaratishga qaratilgan strategik tashabbusdir.

Shu nuqtai nazardan, temir yo'li mintaqaviy integratsiya va logistika oqimlarini qayta taqsimlashda muhim rol o'ynaydi. Mazkur loyiha O'zbekistonning Yevroosiyo'dagi transport xabi (markazi) sifatidagi mavqeini mustahkamlashga ham yordam beradi. Ushbu koridorning barpo etilishi mamlakatga Yevropa, Rossiya, Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida tovarlar tranzitining Markaziy bo'g'iniga aylanish imkonini beradi va shu bilan o'zining geoiqtisodiy ahamiyatini oshiradi. Bundan tashqari, ushbu yo'nalish muqobil transport yo'nalishlarini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan xalqaro sheriklar, shu jumladan Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Turkiya bilan hamkorlikni faollashtirish uchun sharoit yaratadi. Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Yevrosiyo logistikasida kuchlar muvozanatining o'zgarishiga ta'sir qilishi va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun jahon savdosida yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

Shu bilan birga, Afg'onistonning loyihadagi o'rni muhim geosiyosiy omil bo'lib qolmoqda. Mamlakat an'anaviy ravishda beqarorlik zonasi sifatida qaragan, bu esa yirik infratuzilma tashabbuslarini rivojlantirishga to'sqinlik qilib kelgan. Biroq, temir yo'li koridorining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Afg'onistonning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashning muhim vositasiga aylanishi mumkin, bu esa o'z navbatida

mintaqadagi keskinlikni kamaytirishga yordam beradi. O'z navbatida, Hindiston ham O'zbekistonning muhim savdo hamkori sifatida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaqin iqtisodiy aloqalarni o'rnatish uchun Afg'oniston orqali transport tarmog'ini rivojlantirishdan manfaatdordir. Ammo, loyihaga an'anaviy ravishda mintaqada faol rol o'ynaydigan va muqobil transport yo'nalishlarini strategik manfaatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan Xitoy va Rossiyaning geosiyosiy manfaatlari ham ta'sir qilishi mumkin.

Mamlakatlarimizning iqtisodiy salohiyatini samarali rivojlantirishga inklyuziv Sharq - G'arb va Shimol – Janub transport tizimining shakllanishi xizmat qiladi. Transport koridorlarining ko'pligi butun mintaqamizni barqaror rivojlantirishning eng muhim shartidir. Shimol–Janub transport koridorini Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo, shuningdek, yaqin Sharq bozorlari tomon rivojlantirish mintaqaviy hamkorlikning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda, bu davlatlararo chuqur muloqot va sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda dunyoda dengizga chiqish imkoni bo'lmagan atigi 44 mamlakat mavjud. Ularning orasida faqat ikkitasi butunlay dengiz va okeanlarga chiqa olmaydigan mamlakatlar bilan o'ralgan. Bular faqat Shveysariya va Avstriya bilan chegaradosh Lixtenshteyn, shuningdek, Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan chegaradosh O'zbekistondir.

Trans-afg'on temir yo'li koridorining amalga oshirilishi Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi eng qisqa yo'lni ta'minlovchi Markaziy va Janubiy Osiyoning tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish imkonini beradi. Ushbu avtomagistralning ishga tushirilishi yuklarni yetkazib berish muddatini sezilarli darajada qisqartiradi va logistika xarajatlarini kamaytiradi, bu esa o'zaro savdo hajmlarini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu transport loyihasi nafaqat infratuzilmani rivojlantirishga, balki mintaqada iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ham hissa qo'shadigan uzoq muddatli inklyuziv iqtisodiy o'sish uchun asos yaratadi.

Trans-afg'on temir yo'li infratuzilmasining rivojlanishi Yevrosiyaning yangi transport geosiyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Markaziy Osiyo mamlakatlari nafaqat iqtisodiy foyda, balki Afg'oniston infratuzilmasini kengaytirishning geosiyosiy oqibatlarini ham hisobga olishlari lozim. Muqobil yo'nalishlarning yaratilishi mintaqadagi ta'sir doiralari qayta taqsimlanishiga va O'zbekiston, Turkmaniston, Eron, Qozog'iston va Pokiston kabi asosiy ishtirokchilar o'rtasidagi raqobatning kuchayishiga olib keladi.

Afg'oniston temir yo'li koridorlarining strategik ahamiyati mintaqaviy manfaatlar doirasidan ancha tashqariga chiqadi. Afg'onistonga Xitoyning Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqqa kirishiga, shuningdek, Eronning Janubiy hamda Sharqiy Osiyoga tranzitini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarning asosiy bo'g'ini sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, Afg'oniston hukumati

xalqaro hamkorlikka ochiqqligini namoyish etmoqda, bu esa ularni muqobil yuk tashish yo'nalishlariga qiziqqan mamlakatlar uchun jozibador sheriklarga aylantirmoqda.

Turkmaniston-Afg'oniston-Tojikiston (TAT) loyihasi 2013 yilda boshlangan bo'lib Markaziy Osiyoni Afg'oniston bilan bog'laydigan eng istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Afg'oniston transport koridorlarining rivojlanishi Markaziy Osiyodagi kuchlar muvozanatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Asosiy omillardan biri - bu Xitoy va Eronning infratuzilma loyihalarida ishtirok etishidir, bu esa mintaqa transport arxitekturasining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Xususan, Eron Afg'oniston orqali Xitoy bilan to'g'ridan-to'g'ri temir yo'l aloqalarini o'rnatishga intilmoqda, bu esa Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekiston orqali o'tadigan yo'nalishlarga qaramlikni kamaytiradi. 2020 yildan beri Eron chuqur suvli Chabahr bandargohini Afg'onistonning Nimroz va Qandahor viloyatlari bilan bog'lashi kerak bo'lgan Chabahr-Zahidon loyihasini faol rivojlantirmoqda.

Shu bilan bir qatorda, Xitoy tovarlarni Janubiy Osiyo va Yaqin Sharqqa yetkazib berish vaqtini qisqartirishga intilgan holda Markaziy Osiyoda temir yo'l yo'nalishlarini rivojlantirishni faol qo'llab-quvvatlamoqda. Agar Kobul o'z temir yo'l yo'nalishlarini Xitoy logistika silsilalariga qo'shishga rozi bo'lsa, bu O'zbekiston va Qozog'iston orqali o'tadigan an'anaviy transport yo'nalishlari o'rtasidagi muvoza-natni sezilarli darajada o'zgartiradi. Afg'oniston infratuzilmasining rivojlanishi Markaziy Osiyo uchun ikki yoqlama samara berishi mumkin. Bir tomondan, yangi yo'nalishlar transport koridorlarini diversifikatsiya qilish, raqobat muhitini yaratish va tranzit xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Boshqa tomondan esa, bu ular an'anaviy ravishda Yevroosiyo tranzitida asosiy o'rinni egallab turgan O'zbekiston uchun xatarlar yuzaga keltiradi.

Agar Eron, Afg'oniston va Xitoy O'zbekistonni chetlab o'tadigan muqobil yo'llarni yaratadigan bo'lsa, bu uning tranzit mavqeini susaytirishi hamda tojik va turkman yo'nalishlarining ahamiyatini oshirishi mumkin. Turli yo'nalishlar o'rtasidagi raqobat muqarrar, ammo bu logistika aloqalarini diversifikatsiya qilishga va transport xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Markaziy geosiyosiy muammolardan biri bu mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda ishtirok etadigan asosiy tashqi ishtirokchilar o'rtasidagi raqobatdir. Xitoy "Bir makon va bir yo'l" tashabbusi doirasida Markaziy Osiyo bilan transport integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan loyihalarni faol ravishda ilgari surmoqda. Ayni vaqtda, Rossiya an'anaviy ravishda mintaqani strategik ta'sir zonasi sifatida ko'rib chiqmoqda va Yevroosiyo iqtisodiy Ittifoqi (YEOII) doirasidagi loyihalarni, shu jumladan Shimoliy tranzit yo'nalishlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlamoqda. Yevropa Ittifoqi va AQSH Markaziy Osiyoni Kaspiy dengizi hamda Janubiy Kavkaz orqali Yevropa bilan bog'laydigan Trans-Kaspiy xalqaro Transport yo'li (Middle Corridor -O'rta koridor) kabi muqobil yo'laklarni qo'llab-quvvatlash orqali transport aloqalarini diversifikatsiya qilishga e'tibor qaratmoqda.

Transport loyihalari mintaqa davlatlarining ichki siyosiy dinamikasini ham o'zgartirmoqda. Infratuzilmani rivojlantirish barqaror siyosat qarorlarini, uzoq muddatli xalqaro majburiyatlarni va jamoaviy boshqaruv mexanizmlarini talab qiladi. Bu mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, tartibga solish va logistika to'siqlarini bartaraf etish, tarif siyosatini birlashtirish hamda transport oqimlarini birgalikda tartibga solish zarurligini ta'kidlaydi. O'zbekistonning faol yaxshi qo'shnichilik siyosatiga qaytishi bu boradagi muhim qadamlardan biri bo'lib, tranzit hamkorlik bo'yicha ko'p tomonlama muloqot o'rnatish imkonini berdi.

Transport koridorlarining geosiyosiy ahamiyatini belgilovchi yana bir omil - bu energetika bo'g'inidir. Markaziy Osiyo yonilg'i zahiralarga boy ekanligini hisobga olsak, yangi logistika yo'nalishlari neft, gaz va elektr energiyasi eksportini kengaytirish, tranzit markazlariga qaramlikni kamaytirish hamda mintaqa davlatlarining energiya xavfsizligini mustahkamlashga yordam beradi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda transport yo'laklarining rivojlanishi Yevroosiya kuchlar muvozanatini o'zgartirayotgan geosiyosiy o'zgarish omilidir. Markaziy Osiyoning kelajagi global iqtisodiyotning asosiy tranzit markazi sifatida qanday tartibga solish mexanizmlari ishlab chiqilganligi, qaysi xalqaro sheriklar loyihalarda ishtirok etishi va mintaqaviy hamkorlik qanchalik barqaror bo'lishiga bog'liqdir.

Shu munosabat bilan Xitoy va Yevropani bog'laydigan hamda mintaqa davlatlari hududidan o'tadigan mavjud transkontinental transport koridorlarini yanada rivojlantirish va yangilarini yaratish dolzarb vazifadir. Bunday yo'laklarning rivojlanishi nafaqat Markaziy Osiyo davlatlarining jahon bozorlari bilan iqtisodiy integratsiyasini kuchaytiradi, balki mintaqaning xalqaro savdoning muhim bo'g'iniga aylanishiga imkon beradi. Tovarlar va xizmatlarning uzluksiz harakatlantirishini ta'minlaydigan transport hamda logistika infratuzilmasi iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlari yaratish katalizatoriga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyo hududi orqali o'tadigan transport koridorlaridan faol foydalanish ayniqsa dolzarb bo'lib bormoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Trans-Kaspiy multimodal yo'lining rivojlanishi Yevropa va Osiyo o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga, Markaziy Osiyo davlatlariga tashqi bozorlarga yanada qulay hamda samarali chiqish imkonini berishiga salmoqli hissa qo'shishini ta'kidlagan edi.

Xulosa. Istiqbolda Markaziy Osiyo Yevropa, Xitoy, Rossiya, Janubiy Osiyo va yaqin Sharqni bog'laydigan dunyodagi eng yirik quruqlik transport xabrlaridan biriga aylanishi mumkin. Buning uchun mintaqa mamlakatlari YEKOTK (TRACECA) SHHT va YEOII kabi xalqaro transport tashkilotlari doirasidagi hamkorlikni mustahkamlashlari, shuningdek logistikani optimallashtirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etishlari zarur. Yagona bo'xona makonini yaratish, tranzit tartiblarini soddalashtirish va transport

infratuzilmasini modernizatsiya qilish Markaziy Osiyoga tranzit salohiyatini to'liq ishga solish imkonini beradi. "G'arb – Sharq" koridorini rivojlantirish mintaqaning tranzit salohiyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Rossiya, Markaziy Osiyo, Eron va Hind okeani portlarini bog'laydigan "Shimol – Janub" transport koridorini rivojlantirishning ham ahamiyati kam emas. Ushbu yo'nalish mintaqamamlakatlariga eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va Rossiya hamda Xitoy orqali an'anaviy tranzit yo'llariga qaramlikni kamaytirish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo Janubiy Osiyo va fors ko'rfazi mamlakatlari bilan aloqalarini kengaytirish orqali o'z transport koridorlarini diversifikatsiya qilishga faol intilmoqda. Hind okeaniga to'g'ridan-to'g'ri kirishni yaratish asosiy yo'nalishlardan biridir, bu mintaqamamlakatlariga o'z iqtisodiyotlarining raqobatbardoshligini oshirish, tashqi savdoni diversifikatsiya qilish

va Rossiya hamda Xitoy orqali an'anaviy yo'nalishlarga qaramlikni kamaytirish imkonini beradi. Biroq, bunday loyihalarni amalga oshirish geosiyosiy keskinliklar, xavfsizlik muammolari va iqtisodiy noaniqlik kabi muhim muammolar bilan birga kechadi.

Markaziy Osiyoning Hind okeaniga chiqish istiqbollari ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bu mintaqadagi geosiyosiy beqarorlikdir. Birinchidan, Eron va G'arb o'rtasidagi keskin munosabatlar "Shimol - Janub" yo'nalishning barqarorligini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Yuqorida qayd etilgan muammolarni hisobga olgan holda Markaziy Osiyo mamlakatlari ko'p yo'nalishli siyosat olib bormoqda, muqobil yo'nalishlarni ishlab chiqmoqda va xalqaro investitsiyalarni jalb qilmoqda. Markaziy Osiyoda transport sohasini rivojlantirish istiqbollari ma'muriy va logistika to'siqlarini bartaraf etishga qaratilgan mintaqaviy hamkorlikka ham bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на заседании Совета глав государств Шанхайской организации сотрудничества. 04.07.2024. <https://president.uz/ru/lists/view/7372>.
2. Насиров А.. Развитие транспортных коридоров в Центральной Азии и новые региональные инициативы в транспортно-логистической сфере. Транспорт Шёлкового Пути. №1, 2021. UDK 339.56:656.02 (5-191.2) (04).
3. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на саммите Совета сотрудничества тюркоязычных государств. 13.11.2021. <https://president.uz/ru/lists/view/4758>
4. Ш.Мирзиёев. Участникам первой международной конференции «Взаимосвязанность Европейского союза и Центральной Азии: глобальные ворота для устойчивого развития». 18.11.2022. <https://president.uz/ru/lists/view/5714>
5. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на онлайн-саммите «Голос глобального Юга». 12.01.2023. <https://president.uz/ru/lists/view/5815>.
6. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии «Узбекистан – 2030» от 11.09.2023 г. № УП-158.
7. Узбекистан начнет экспорт через порты Каспийского моря. 11 ноября 2024. <https://anhor.uz/news/uzbekistan-148/>.
8. Международные транспортные связи в рамках ОТГ развиваются ускоренными темпами.
9. Алиев И.: железная дорога Китай - Киргизия - Узбекистан позволит увеличить товарооборот. <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/16022859>
10. Узбекистан поддерживает инициативы Азербайджана по развитию транспортных связей. 19.05.2023. <https://aktualno.uz/ru/a/9270-uzbekistan-podderzivaet-iniciativy-azerbaidzana-po-razvitiyu-transportnyx-svyazei>.
11. Iran Uzbekistan emphasize on improving ties between people through parliaments. 2024/02/01. <https://en.mfa.ir/portal/newsview/739206>
12. Шавкат Мирзиёев поздравил Масуда Пезешкиана с избранием на пост президента Ирана. 6 июля 2024. <https://www.gazeta.uz/ru/2024/07/06/iran/>
13. Jalilov O. Uzbekistan to Join Iran's Chabahar International Trade Project. January 26, 2022. <https://caspiannews.com/news-detail/uzbekistan-to-join-irans-chabahar-international-trade-project-2022-1-25-37/>